

## PROFESSOR I.K.MIRZAYEV - Y.E.BERTELS ASARLARINING TARJIMONI

**Karimov Abdusamat Said o'g'li***Samarqand Davlat Universiteti**magistranti**Phone: +998977017386**E-Mail: xatamovboburjon@gmail.com***Annotation**

The article scientifically reveals professor I.K.Mirzayev's activities and translations, which made a significant contribution to the Uzbek language and literature, and their significance.

**Key words**

Yevgeny Eduardovich Bertels, novel "Navoi", Linguistics and poetics of the text", "Current issues of teaching methods of Uzbek language and literature", "Iskandarnoma".

Alisher Navoiyning ijodiy me'rosi shoir yashagan davrdan to hozirgi kungacha ko'plab tadqiqotchilarining, sharqshunos olimlarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Davlatimiz rahbari 2016-yil saylovoldi uchrashuvida Alisher Navoiy nomi bilan ataluvchi viloyatda har yili xalqaro konferensiya o'tkazish to'g'risida taklif bildirgani ham buyuk bobokalonimiz ijodi va faoliyatiga ko'rsatilgan ulug' ehtirom namunasidir. Uning ro'yobi o'laroq, 2017-yil ilk bor o'tkazilgan xalqaro anjuman Vengriya, Ozarbayjon va Qozog'iston davlatlaridan tashrif buyurgan navoiyshunos olimlar hamda respublikamizning 150 nafarga yaqin taniqli akademik va professorlarini o'z atrofiga birlashtirgan edi. Ushbu ilmiy-amaliy anjumanda dunyoning 20 dan ortiq davlati hamda mamlakatimizning 200 nafarga yaqin navoiyshunos olimlari ishtirok etdi. Ular orasida eronlik Ibrohim Xudoyer, turkiyalik Fikret Turkmen, rossiyalik Aleksey Pilev, ozarbayjonlik Moxsun Nagisoylu, Gyulbaniz Abbasova, tojikistonlik Abdusalom Abduqodirov, qozog'istonlik Azamat Akbarov kabi taniqli mutaxassislar borligi Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodi faqat o'zbek, balki jahon adabiyotida ham tadqiqotchilar diqqat markazida ekanligiga yaqqol isbotdir. XX asr voqeeligida ham ko'plab navoiyshunos olimlar yashab o'tgan bo'lib, ularning ichida ayniqsa Bertels Evgeniy Eduardovich alohida diqqat-e'tiborga molikdir.

Bertels Evgeniy Eduardovich 1890-yil 13-dekabrda Sankt-Peterburg shahrida tug'ilgan. Avval o'rta keyin olim ta'llim bosqichlarini olganidan so'ng sharq she'riyati ayniqsa Navoiy ijodi bilan jiddiy shug'ullana boshlagan. Tez orada o'zining ilmiy salohiyati va tadqiqotlari bilan Navoiyshunos va sharqshunos olimlar nazariga tushib, 1956-yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, 1951-yilda Tukmaniston Fanlar Akademiyasi faxriy a'zosi etib saylangan. O'zbekiston va Tojikistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, professor (1928) filologiya fanlari doktori (1935) unvonlar sohibi bo'lgan. Fanlar Akademiyasi Osiyo muzeyi, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Til va adabiyot institutida, ayni vaqtida O'rta Osiyo davlat universitetida (1942-46) ishlagan. Bertels Yaqin va O'rta Sharq xalqlari, ayniqsa turkiy xalqlar tili, adabiyoti, tarixiga oid ilmiy asarlar yaratgan. Sufiylik tariqati va adabiyotiga alohida e'tibor bergen. Mazkur sohalar bo'yicha matnshunoslik maktabi asoschilaridan biridir. Firdavsiy (1935), Nizomiy (1940), Navoiy (1948) ijodi haqida monografiyalar yaratgan. Nizomiyning "Iskandarnoma" asarining ilmiy-tanqidiy matnini tayyorlashda rahbarlik qilgan. Fors, o'zbek, tojik, turkman adabiyotlari tarixidan ocherklar yozgan (1928-35). O'zbek yozuvchilarini, jumladan Oybek va uning "Navoiy" romani haqida ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Y.E. Bertels o'zining Alisher Navoiy va forstojik adiblari ijodiy faoliyatini qiyosiy o'rganish orqali Navoiyning original shoir ekanligini isbotladi. Samarqand adabiyotshunoslik amktabining darg'alaridan biri bo'lmish I.K. Mirzayev Bertels asarlari tarjimonini sifatida tanilgan taniqli professor bo'lib, u o'zbek adabiyotiga bugungi kunda katta hissa qo'shib kelmoqda. E.Bertels "Navoiy" monografiyasida Navoiy devonlarining qo'lyozmalari haqida ma'lumot beradi, ularni muqoyosa qiladi. Shu bilan birga, Navoiy turkiy g'azallarining o'ziga xos muhim tomonlari haqida fikr yurutib, ayrim g'azallarning mufassal tahlilini beradi. Navoiy qit'alalarining mohiyati haqida maxsus mulohazalar bayon qiladi. I.K. Mirzayevning yutug'i shundagi muallif ushbu monografiyanı garchi murakkab ilmiy adabiyot bo'lsada mohirlik bilan tarjima qila olgan. Jumladan olim Bertelsning "Navoiy" monografiyasidagi Hirot vasfidagi bobni quyidagicha taqim etadi: "Hirot Xurosning eng qadimiy shaharlaridan biridir. Qadimgi Eronning muqaddas kitobi "Avesto"da va Ahamoniylarning mixxat yozuvlarida tilga olingen Xarayvaning Hirot ekanligiga shubha yo'q. Qadimgi yunonlar uni Areia deb atashgan va bu yerda Aleksandr Makedonskiy tomonidan asos solingen Iskandariya Areion joylashgan deb o'ylash mumkin. Shahar arablar davrida va keyinchalik birinchi mustaqil sulolalar davrida o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Mo'g'ullar unga og'ir zarba berdilar. 1222 yilda Chingizxonning o'g'li Tulixon shaharni egallab, aholisini butunlay qirib tashladi.

Shohruh o‘z saltanatining boshidanoq shaharni qayta tiklash bilan shug‘ullana boshladi. Bu davrda shahar devorlar ta’mirlangan, ariqlar qazilgan, ko‘priklar ko‘tarilib, darvozalar mustahkamlangan.

Kitobda shuningdek Samarqand haqida ham to‘htalingan bo‘lib, jumladan muallif “Temuriylar davrining ikkinchi yirik madaniy markazi – Samarqand haqida bir necha so‘z so‘ylash lozimdir. Ushbu shahar qadimiylikda Hirotdan kam emasdir. Maroqand nomi bilan u “Avesto”da ham, yunon tarixchisi Aleksandr Makedonskiy Arrian tomonidan ham tilga olingen va uni «So‘g‘d diyorining poytaxti» deb atagan. Arablar istilosidan so‘ng xalifalikdan mustaqil bo‘lgan ilk bekliklarning tashkil topishida Samarqand Buxoro bilan raqobatlashgan holda katta rol o‘ynadi. Bu shahar atrofidan tojik-fors mumtoz adabiyotining asoschisi deyish mumkin bo‘lgan eng buyuk tojik-fors shoirlaridan biri – Rudakiyni yetishtirib bergen” deb yozadi.

Shuningdek I.K. Mirzayev Y.E. Bertelsning Fariddun Attorga doir tadqiqotlarini ham o‘zbek tiliga mohirona tarzda tarjima qilgan. Bu borada olib borgan tadqiqotidan maqsadini I.K. Mirzayev quyidagicha izohlaydi: “Sobiq ittifoq FAning muhibir a’zosi, f.f.d., professor Y.E.Bertelsning “Navoiy va Attor” risolasi so‘z mulkining sultonni, hazrat bobokalon shoirimiz Nizomiddin mir Alisher Navoiyni rus va g‘arb adabiyotida keng tarqalgan “tarjimon, taqlidchi”, “asl shoir emas”, fors mumtoz adabiyotiga taqlidchi sifatida baholaganligi asossiz ekanligini, sharqshunoslar turkiy adabiyotlar tahlilida g‘arb badiiy asarlarini baholashda qo‘llanilgan o‘lchovlardan foydalanganliklarini asoslash uchun yozilgan”.

“Navoiy va Attor” 3 qismdan iborat bo‘lib, uning 1-qismida turkiy adabiyotning fors adabiyotiga bog‘liqligi nisbiy xarakterda, shu dalilga asoslanib, uni noraso adabiyot deyish mutlaqo noto‘g‘ri ekanligi, 2-qismida Alisher Navoiyning qush tili haqida doston yaratishdan maqsadi, nimaga intilgani va uning o‘z salafiga munosabati qanday bo‘lgani yoritib berilgan. 3-qismda Fariduddin Attorning “Mantiq ut-tayr” va Alisher Navoiyning “Lison ut-tayr” dostonlari so‘zma-so‘z, satrma-satr, bandma-band qiyoslab o‘rganilgan va pirovard natijada A. Navoiyning betimsol shoir, mutafakkir, buyuk siymo bo‘lgani asoslab berilgan. Y.E.Bertelsning mazkur asari keyinchalik ilmiy navoiyshunoslik uchun mustahkam poydevor vazifasini o‘tagani ham ayni haqiqatdir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash mumkinki, yuqorida nomlari keltirilgan Y.E. Bertelsga oid asarlarning o‘zbek tilidagi tarjimalari bizga Alisher Navoiy shaxsiyati, tafakkuri va adabiy me’rosini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Dolaversa ushbu asarning tarjimasi muvafaqqiyatlari chiqqani navoiyshunos olim I.K. Mirzayevning ham mehnatkash va yetuk tarjima salohiyatiga ega olim ekanlidigan dalolat beradi.

#### Foydalanimanligi adabiyotlar ro‘yxati:

1. Алиев Г.Ю. Вклад Е.Э. Бертельса в изучение литература народов Востока // Вопросы восточной текстологии и истории литературы народов Ближнего и Среднего Востока. Научная сессия, посвященная памяти Е.Э. Бертельса. 4-6 февраля 1975 г. Тезисы докладов и сообщений. Москва.: Наука. 1975. -С. 5-9.
2. Алиев Г.Ю. Е.Э. Бертельс и изучение творчества Низами// Е.Э. Бертельс. Избранные труды. Т. 2. Москва.: Наука. 1962.
3. Bertels E.Y Sufizm va tasavvuf adabiyoti. Rus tilidan Ibodulla Mirzayev tarjimasi.-S.: SamDU. 2006.
4. Ma’mun akademiyasi // uz.m.wikipedia.org. Safarov Sh. Tarjimashunoslikning kognitiv asoslari -T.:2019.
5. E.Y. Bertels. Navoiy. Monografiya. Samarqand.: Tafakkur qanoti. –B. 364.